

RAMZIY TASVIR YARATISH MAHORATI

Shahodat Isakjanova

O'z R FA tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14604440>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abduvali Qutbiddinning ijtimoiy-siyosiy davr voqeligi aks etgan she'ri tahlilga tortiladi. Tahlil mobaynida muqoyasa uchun Said Ahmadning ayni mavzudagi hikoyasiga ham murojaat qilinadi. 80-yillar voqealari aks etgan mazkur asarlarda otabobolarimizning nohaq tuhmatlarga duchor bo'lganliklari bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: ramziy sintez, siyosiy faoliyat, totalitar tuzum, tadrijiylik, falsafiy mushohada, tergov guruhi.

Ma'lumki, Abduvali Qutbiddin she'riyatida adabiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy-tasavvufiy va shu kabi turfa xil yo'sindagi ohanglar jamuljamiga, hayotning rang-barang jilosiga duch kelamiz. Ijodkor ba'zi she'rlarida insoniy hislar haqida mushohada yuritsa, ayrimlarida davrning ijtimoiy-siyosiy masalalarini falsafiy yo'sinda aks ettiradi.

Abduvali Qutbiddinning “Tarnovda mushukning chiyillashiday...” deb boshlanuvchi mohiyatan nihoyatda teran, o'zbek xalqining “qon yutib” yashagan o'tmishidan, ro'shnolik neligini bilmagan zalvarli tarixidan saboq beruvchi she'ri o'quvchi tasavvurida jiddiy mulohazakorlik uyg'otishi, yaqin o'tmishdan saboq chiqarishga undashi shubhasiz. She'ning dastlabki bandi harakat va holatning ramziy sintezi bilan boshlanib, dastlab gap nima haqida borayotganligini anglash murakkablik tug'diradi:

Tarnovda mushukning chiyillashiday

Qishning qarg'ishi.

Qor kurar kuragi zirqirab –

Qirovota¹.

She'rdagi har bir so'z ko'chma ma'noda qo'llanilib, ramziy ma'noni ifodalash uchun keltirilganini ko'rishimiz mumkin. Odatda mushukning chiyillashi quloqqa noxush eshitiladi, she'rda qishning qarg'ishini mushukning xunuk ovozigga mengzalishi holatni kuchaytirib ifodalashga, voqelikni kuchliroq aks ettirishga xizmat qiladi. Qish shu qadar qattiq kelganki, qirovota kuraklari zirqirab qorni kurayapti. Xo'sh, bu yerda bahs etilayotgan qirovota kimning ramzi? Fikrimizcha, qirovota – sodda va zahmatkash o'zbekning qiyofasini gavdalantirishga xizmat qilgan. Qish esa sovetlarning rahm-shafqatsiz siyosiy faoliyati. Tarixdan yaxshi ma'lumki, bu davrda mamlakatda Lenin tomonidan asos solingan totalitar boshqaruv tizimi Stalin

¹ Abduvali Qutbiddin. Uzoqdan olisga. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2018. – B.24.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

tomonidan yanada alanga oldirilib, hukmron partiyaning zo‘ravonligi misli ko‘rilmagan yo‘qotishlarni boshimizga yog‘diradi. Butun insoniyat tarixida o‘zbek xalqining sabridek sarhadsiz matonat egalarini boshqa biror xalqda uchratish amri mahol. Mustabid tuzumning qatag‘on siyosatidan o‘nglanmas zarbalarni olgan xalq boshiga “Paxta ishi”, “O‘zbek ishi” nomli ichdan to‘qib chiqarilgan jinoiy ishlar ham qora quzg‘unday yopirilib keladi. Ma‘lumki, 1983-yildan 1989-yilgacha – olti yil mobaynida SSSR prokraturasining Telman Gdlyan boshchilik qilgan tergov guruhi O‘zbekistonda bo‘lib, o‘zbek xalqini qaytadan qatag‘on qilish siyosatini avj oldirib yuboradi. Achinarlisi, Gdlyan boshchilik qilgan tergov guruhida qanchadan qancha o‘zbek tergovchilari faol ishtirok etib, o‘z vatandoshlariga rahm-shafqat qilishni aslo xayollariga keltirishmaydi.

Millat dardida yongan, or-nomusli, subutli er yigitlarga bosmachi tamg‘asi bilan ayblarni taqab, tuhmatlarni yog‘dirib; yaxshi kunlariga deb ming mashaqqat bilan biroz mulk yiqqanlarni poraxo‘rlikda, o‘g‘rilikda ayblagan bu guruhning kirdikorlarini aytishga til-da ojiz, yozishga qalam-da noqis.

Tugamas uligan – uliyotganlar,
Sovuq – izg‘irin – balo-yu battar.
Ko‘kragi kundaday quriyotganlar –
Qor chaynar...²

Abduvali Qutbiddin o‘zbek xalqi boshiga tushgan mazkur kulfatlarni tabiat tasviri hamda izg‘irindan azob chekayotganlar fonida berar ekan, aslida, she‘r tagma‘nosida odam bolasining kuchli iztiroblarini namoyon eta olganligi bilan diqqatimizni tortadi. Bu yerda “sovuq – izg‘irin – balo-yu battar” deya ta‘riflanayotgan sovet hukumati xuddi tadrijiylik asosida zulmni avj oldirayotganga o‘xshab ko‘rinadi. She‘rning keyingi bandida:

Qarg‘ish yutilmasmi yerning ostiga,

Boplab yozmaysizmi, sof endi, sof – deyish bilan o‘zbeklarga otilgan tuhmat toshlarining mustaqillik davriga kelib olib tashlanishi borasida fikr yuritayotgan bo‘lsa-da, o‘tmishdagi og‘riqning zo‘ridan shoir bo‘g‘zidan alamli nido otilib chiqqandek bo‘ladi.

Shu o‘rinda muqoyasa uchun atoqli yozuvchi Said Ahmadning sobiq sho‘ro tergovchilari qo‘lida azob chekkan yurtdoshlarimizga bag‘ishlangan “Azroil o‘tgan yo‘llarda” hikoyasida ham aynan Abduvali Qutbiddin she‘rida so‘z yuritilayotgan “o‘zbek ishi” xususida, aniqrog‘i, Telman Gdlyan guruhining yana bir azroili haqida

² Abduvali Qutbiddin. Uzoqdan olisga. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”,2018. – B.24.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ekanligini eslab o‘tsak, mohiyatan bu tergovchilar tomonidan olib borilgan ishlar SSSRdan ajralib chiqish tahdidi bo‘lgan hududlarda ongli ravishda “boshqariluvchi boshboshdoqlik” yaratish uchun foydalanilgan siyosiy texnologiyaning natijasi ekanligi yanada yaxshi ayon bo‘ladi. Iyagi asabdan chap tomonga tortadigan kolxoz raisi Hamro Ochil, bir oyog‘i nogiron qorako‘l sovхозining direktori Ixtiyor Kamol, duduqlanib gapiradigan paxta zavodining direktori Zulfiqor Gadoyev obrazlari orqali militsiya tergovchisi Jalolovning barcha qilmishlari kitobxon ko‘z oldida dahshatli manzara hosil qiladi. Rais va direktorlar she‘rdagi qirovotaning tipik obrazlari sifatida ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi. O‘sha paytda Telman Gdlyan guruhi tergovchilari tomonidan sun‘iy dalillar to‘plash shu darajada urchib ketgan ediki, natijada jinoyatga hech bir aloqasi bo‘lmagan, o‘z otasining yoki biror yaqinining qanday jinoyati borligini anglab ham yetmagan insonlar o‘z yaqinlarini asrab qolish uchun o‘zlarining shaxsiy omonatlari, bolalari va nabiralarning to‘ylariga atab qo‘yilgan tilla va boshqa nimaiki taqinchoqlari bo‘lsa topshirishgan, yetmaganiga qarindoshlardan, tanishlardan qarz olishgan. Shuningdek, qamoqdan qutulib qolish uchun odamlar do‘konlardan qimmatbaho narsalar sotib olib, ularni go‘yoki jinoyat yo‘li bilan orttirgan boylik sifatida topshirishgan. O‘sha vaqtda “O‘zbekistondan 24ming kishi qamoqqa tiqildi. Ularning hammasi gunohkormidi? Tahririyat papkasida dil faryodiga to‘liq xatlar oz emas: “Mutlaqo begunoh qamaldim. Aybim yo‘qligini isbotlashga urindim, lekin ko‘rmagan azobim qolmadi. Uch yil qamoqda, lagerlarda yurib sog‘ligimdan judo bo‘ldim”. “Falonchiga falon ming pora berganman desang, chiqarib yuboramiz, dedilar. Rad etdim. It azobini boshimga soldilar. Ham jismoniy, ham ruhiy azobladilar. Uch kecha-kunduz suv bermadilar. Oxiri ular tayyorlagan qog‘ozga qo‘l qo‘yishga majbur bo‘ldim. Tuhmatchi bo‘lib qolganimga vijdonim yonib ketyapti”. “Bilamiz, senda gunoh yo‘q. Falon ming so‘m topib bersang, qutulasan, dedilar. Yaqin-yiroq qarindoshlardan o‘sha pulni topib berdim. Ana, shuncha puling bor ekan, demak, jinoyatchisan, deb kesib yubordilar. Haqiqat bormi o‘zi?”³

Said Ahmad hikoyasidagi Ixtiyor Kamolning o‘g‘illari otasining hech bir aybi yo‘qligini bila turib qamoqdan qutqarish maqsadida Buxoroga borib yuzta tilla tangani tergovchiga olib kelib bergani ham yuqorida aytilganlarning yorqin isboti edi. She‘rning so‘nggi misralari kinoya bilan yakunlanadiki, bu bilan Abduvali Qutbiddin til sathidagi kontrast (antiteza yoki tazod)⁴ning qudratini anglata olishdan tashqari,

³ Nabijon Boqiy. Qatlnoma. – Toshkent: “Azon kitoblari”, 2021. – B. 6.

⁴ Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B.143.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

o‘zbek xalqining boshiga tushgan ko‘rgiliklar zamirida yuvgan bilan ketmaydigan alamli dog‘lar borligini anglatmoqchi bo‘ladi:

Tarnovda muzbo‘lak iblis bashara,
Bashariyat emas, deganim to‘g‘ri.
Qor kurar kuragi zirqirab,
Qirovota –
Sofdil, bechora va lekin o‘g‘ri⁵.

Tarnovda qatorasiga osilib turgan muz bo‘laklari – mustabid tuzum vakillari iblis basharalarga qiyos qilinarkan, keyingi misrada ularni bashariyat ahliga kiritmaslikni ma’qul ko‘rgan shoirning nafrati bashara-bashariyat ohangdosh so‘zlari asosida kuchli qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi. Kuragi zirqirab qor kurayotgan qirovota esa begunoh bo‘lgani holda o‘g‘ri, sofdil bo‘lgani holda mutahham. Garcha she’rda o‘g‘ri so‘zi qo‘shirnoqqa olinmagan bo‘lsa-da, undagi kinoyaviy ma’no zidlov bog‘lovchisi orqali, qolaversa, undan oldin kelgan ikkita so‘zning ijobiy ottenkalari orqali to‘la anglashiladi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, Abduvali Qutbiddin mazkur she’rida ulkan voqelikning ixcham miniatyurasini so‘z qudrati yordamida tasvirlab bera olgan. So‘zlardagi ramziy ma’nolar ostida xalqning, millatning eng og‘riqli nuqtalari mujassamlashgan bo‘lib, kelajak avlodga tarixdan va haqiqatdan darak beruvchi mo‘jaz asar sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduvali Qutbiddin. Uzoqdan olisga. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”,2018.
2. Said Ahmad. Qorako‘z Majnun.Toshkent:”Sano-standart”,2016.
3. Nabijon Boqiy. Qatlnoma. – Toshkent :”Azon kitoblari”,2021.
4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.

⁵ Abduvali Qutbiddin. Uzoqdan olisga. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”,2018. – B.24.